JIZZAX VILOYATI FORISH TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 20 - yanvar 15-3-53-Q/23 Forish tuman hokimligi

Forish tumani ichki xo’jalik avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida tezlikni cheklovchi, piyodalar o’tish yo’l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 25-moddalari (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda), “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi “Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3127-son qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 28-son, 645-modda), Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalari” (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.04.2022-y.) ijrosini hamda tumanda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Forish tumani ichki ishlar bo`limining 2022 yil 10 avgustda 42/1410-sonli xati ma`lumot uchun qa`bul qilinsin va maqullansin.

2. Forish tumani Uchquloch, Uchma, Do`stlik MFY hududlariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga (X.Jo`raqulov) tuman hududidagi Uchquloch, Uchma, Do`stlik MFY hududlariga ilovaga muvofiq yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan yo‘l belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlariga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB (V.Xusanov) mazkur yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda tuman hududida transport vositalari harakati tartibga solinishi nazorat qilib borilsin.

6. Ushbu qaror “Forish tongi” gazetasida chop etilsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **И.Матиев**

Forish tuman hokimining
2023 yil 20 yanvardagi
15-3-53-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Forish tumanida ichki xojalik yo`llarida joylashgan maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari joylashgan ko’chalarga tezlikni cheklovchi, piyodalar o’tish yo’l belgilari joylashuv dislokasiyasi

	MFY nomi	**Ko’cha nomi**	**Yo`l belgilari o`natiladigan ob’ekt nomi**
1	Uchquloch MFY	Uchquloch qishlog’I (shag’al) yo’li (Ichki yo`l)	10- sonli umumtalim maktabi ro`parasiga
2	Uchma MFY	Uchquloch qishlog’I (shag’al) yo’li (Ichki yo`l)	11- sonli umumtalim maktabi ro`parasiga
3	Uchma MFY	Uchquloch qishlog’I (shag’al) yo’li (Ichki yo`l)	17- sonli MTT ro`parasiga
4	Do’stlik MFY	Mojrum qishlog’I (shag’al) yo’li (Ichki yo`l)	32- sonli umumtalim maktabi ro`parasiga